


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

**70110201 Ta'lif va tarbiya nazariyasi va  
metodikasi (Maktabgacha ta'lif )  
magistratura mutaxassisligining**

***MALAKA TALABI***

Toshkent -2024



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil «1» 08 dagi 272-sonli buyrug‘i bilan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda  
Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlari tavsifi .....	5
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarining sohalari .....	5
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari .....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	8
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	9
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	10
	<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	11
	<b>Kelishuv varag'i .....</b>	12

## **1. Umumiy tavsifi.**

*70110201 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)* magistratura magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Magistraturada o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil. Magistratura o‘quv dasturining hajmi ta’lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta’lim texnologiyalaridan qat’iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o‘quv yili uchun magistratura ta’lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydag‘i PF-81-son Farmonigako‘ra, *70110201 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)* mutaxassisligi magistrurasida o‘qish uchun kamida B1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanishi.**

Mazkur Malaka talab *70110201 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)* mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi oliy ta’lim muassasalari uchun majburiy talablar majmuasini ifodalaydi.

**1.1.2.** Oliy ta’lim muassasasi mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda asosiy o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

#### **1.1.2. Malaka talablining asosiy foydalanuvchilarini:**

*70110201 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)* mutaxassisligi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilar;

– mutaxassislikning o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;

– o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

– oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

– oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– mutaxassislikni ixtiyoriy tanlash huquqiga hamda bakalavriat darajasiga ega bo‘lgan abiturientlar va boshqa manfaatdorlar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70110201**-maktabgacha ta'lim sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish,O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish va boshqarish kabi kompleks masalalar majmuasini, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahaliy davlat boshqaruvi organlarida faoliyatni tashkil etish va boshqariga oid kompleks masasalarni hal etish, shuningdek sohani rivojlantirishda xavfsizlikni ta'minlash, istiqbolni belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirigan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

uzluksiz ta'limda maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari hamda oliy ta'lim muassasalari;

ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish muassasalari;

### **1.2.3. kasbiy faoliyatlarining turlari**

- *ilmiy-pedagogik tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*70110201 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi)* bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:  
**Ilmiy -pedagogik faoliyatida:**

- **o'quv jarayonini rejalashtirish-** DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, talabalarning extiyojlarini va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, fanlarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillariga ko'ra rejalashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- **ta'lim samaradorligini ta'minlash-** dars maqsadlariga ko'ra talabalar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, talabalarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning

samaradorligini tahlil qilish, talabalarning ta’limiy maqsadlariga mos keladigan o‘qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o‘qitishning faol usullaridan foydalanish, talabalarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanish, talabalarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalaridan foydalanish, talabalarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, talabalarни mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, auditoriyada samarali muloqotga erishish;

- **o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish-** ta’lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta’lim natijalarini taxlil qilish, dars rejasи va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo‘llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish;

- **tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish-** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg‘ulot hamda auditoriyadan tashqari ishlarda qo‘llash, tarbiyaviy ishlarda talabalarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta’lim muassasasining ustavi va ichki tartib qo‘iadalariga muvofiq talabalar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o‘rnatish, ijtimoiy sog‘lom muhitni yarata olish, talabalarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog‘lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash-** talabalar orasida o‘zaro hurmat muhitini yaratish, talabalarga auditoriya hayotida teng imkoniyatlar yaratish, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, talabalar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishslashga yordam bera olish;

- **o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish-** muntazam malaka oshirish kurslaridan o‘tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o‘zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o‘tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish;

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- **ilmiy pedagogik ish (IPI)** – maktabgacha ta’lim sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda bakalavrariat ta’lim yo‘nalishidagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni faollashtirish uslublarini, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetensiyalarini baholashning xalqaro standartlari va ilg‘or metodlarini amaliy o‘zlashtirishi, mustaqil ta’limning tashkiliy va o‘quv-uslubiy ta’moti, masofadan o‘qitish texnologiyalarini, fanlar bo‘yicha o‘quv-me’yoriy hujjatlarni (o‘quv reja, ishchi o‘quv reja, fan dasturi, ishchi fan dasturi, o‘quv-uslubiy majmua, kalendar ish reja) larni ishlab chiqish, o‘quv adabiyotlarini (darslik va o‘quv qo‘llanma, uslubiy yo‘riqnomalarini yaratish asoslarini bilishi va ulardan foydalana olishi, oliy ta’lim

muassasalarida dars mashg‘ulotlarining (ma’ruza, amaliy, laboratoriya, seminar kabi ) an’anaviy va noan’anaviy (innovatsion) shakllarini o’tkazish, ma’ruza matnlari va mashg‘ulotlar o’tkazish rejalari (texnologik xaritalari)ni tuzish, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetensiyalarini nazorat qilishning tashkiliy va uslubiy ta’minotini ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarning tashkiliy va uslubiy ta’minotini yaratish bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishi kerak.

*Malaka amaliyoti-* ilmiy-tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish, fan, madaniyat va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishish, amaliy kasbiy va ilmiy tadqiqot kompetensiyanini shakllantirish, mutaxassislik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish, magistrlik dissertatsiyalar bo‘yicha tajriba-sinov, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish va kasbga samarali moslashuvni ta’minalashi kerak.

• **Ilmiy tadqiqot ish (ITI)** – maktabgacha ta’lim fanlariga doir eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish, kimyo va uni o‘qitish metodikasi yo‘nalishlariga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish, ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish, komyoga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo‘lishi;

ilmiy tadqiqot ishining metodologik asoslari, prinsiplari va metodlarini bilishi, ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan ishlab chiqilgan dastur asosida mustaqil tadqiqotlar olib bora olishi, ilmiy tadqiqotning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyatini asoslay olishi, tadqiqotning natijalarini maqola yoki tezis ko‘rinishida taqdim eta olishi, ilmiy-texnik tendensiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlay bilishi va ularning aniq yechimlarini taklif eta olishi hamda kutilayotgan natijalarni baholay olishi, turli xil ma’lumotlar manbalarini tahlil qilish va foydalanish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; diskussiya va munozaralar olib borish, nazariy va metodologik bilimlardan amaliyotda foydalana bilish, tanlagen mutaxassisligi bo‘yicha axborot manbalari, ilmiy va boshqa turdagи manbalar bilan ishlay olish, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha namunaviy modellar, obyekt va jarayonlarni tadqiq qilish usullarini o‘rganish, tajriba tadqiqotlarining ilmiy texnik ta’minotini o‘rganish, tajriba-tadqiqotlar natijalarini qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak kerak.

### **Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:**

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish;

talabalarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha individual suhbat

o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehrmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

#### **2.1. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar**

Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

Shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga qobiliyatilik.

Ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan foydalanishga qobiliyatilik.

Ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik.

Muloqotga kirishish va maxsus matnlarni tushunish uchun chet tillardagi bilimlardan foydalanish.

Axborotni olish, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik.

Ijtimoiy o'zaro harakatga kirishishda ta'lim ishtirokchilarining etnomadaniy o'ziga xosliklarini hisobga olish.

Axloqiy me'yorlar va ma'naviy madaniyatni o'zlashtirish.

Ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

Gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatilik.

O'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

Maktabgacha turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydalanish qobiliyatiga egalik;

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarning miqdor va sifat metodlarini egallaganlik;

O‘qitish, tarbiya, rivojlanishning turli nazariyalariga doir bilimlar, ta’limning turli bosqichlarida o‘qitish dasturlaridan foydalanish qobiliyati;

Ta’lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

Pedagoglik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish;

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy tuzilmasining o‘ziga xosliklari, shuningdek, milliy tarbiyaning qonuniyat va tamoyillarini hisobga olgan holda, ko‘pmadaniyatlilik muhitida kasbiy faoliyatni tashkil etish usullarini egallash;

Kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo va vakolatli tuzilmalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirok etishga qobiliyatatlilik;

Kasbiy faoliyatda bola huquqlari to‘g‘risidagi asosiy xalqaro va milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish qobiliyati;

Tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirganlik;

Ta’lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo‘naltirilgan o‘qitishga qobiliyatatlilik.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Mutaxasislik bo‘yicha malaka amaliyot nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikma va malakalar, tadqiqotchilik kompetentsyalarini shakllantirish maqsadida o‘quv jarayonidan ajralgan holda 4 hafta amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash ITI va IPI natijalari asosida qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalarni umumlashtitish maqsadida o‘quv jarayonidan ajralgan holda 10 hafta amalga oshiriladi.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	Fanlar bloklari va bloklarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
<b>1.00.</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01.	ITM1205	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	2
1.02.	YaO'TSTI1105	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lif tizimidagi islohotlar	150	5	1
1.03	MPTM1105	Maktabgacha pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish	150	5	1
1.04	OTMFO'M1205	Oliy ta'lifda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	150	5	2
1.05	MTBIA1305	Maktabgacha ta'lif boshqarishning ilmiy asoslari	150	5	3
1.06	PAkm1405	Pedagogik akmeologiya	150	5	4
<b>2.00</b>		<b>Jami:</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
Kvalifikatsiya:		Pedagog-tadqiqotchi			
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
		<b>JAMI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rghanish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliv ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, maktabgacha ta'lim, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

## Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

### ISHLAB CHIQILGAN:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Rektor

A.Kirgizbayev

2024-yil « 20 » 07  
M.O'.

### KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tatqiqotlari markazi

Direktor M.Boltabayev

2024-yil « 20 » 08  
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab ta'limi ta'lim

vazirligi huzuridagi

Respublika ta'lim markazi

Direktor Sh.Xudaykulov

2024-yil « 20 » 07  
M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Rektor Sh.Sharipov

2024-yil « 20 » 07  
M.O'.

Ishchilik davlat pedagogika universiteti

G.Muxamedov

2024-yil « 20 » 07  
M.O'.